

**SAYLOV TIZIMI VA REFERENDUM JARAYONLARI – XALQ
HOKIMIYATCHILIGINING ASOSI**

Rajabova Umida Ismatilla qizi
1-kurs siyosatshunoslik yo'nalishi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada saylov, saylov tizimi, saylov huquqi prinsiplari, saylov senzlari, referendum, referendum jarayoni, referendum tashabbuskori, referendum jarayoni va saylov tizimining farqli jihatlari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Saylov, proporsional saylov, majoritar saylov, saylov prinsiplari, saylov senzlari, aktiv va passiv saylovchilar, referendum, referendum tashabbuskori, Markaziy saylov komissiyasi.*

Kirish. Saylov jarayoni kecha yoki bugun paydo bo'lган tushuncha emas. U ko'п yillik tarixga ega bo'lib, kishilik jamiyatida demokratiya definitsiyasi paydo bo'libdiki, saylov jarayoni ham u bilan uzviy aloqada tarix silsilasida shakllandi. Bilamizki, qadimgi Yunoniston va Rim demokratiya va zamonaviy saylovlar vatani hisoblanadi. Qadimgi davrlarda insonlarga o'z yetakchilarini ovoz berish orqali aniqlab olish qulay bo'lган. Umumxalq kengashlarida xalq o'z yetakchilarini ovoz berish orqali saylashgan. Bu esa o'z navbatida, hukmronlikning dastlabki ko'rinishi va ibtidoiy davrning o'ziga xos demokratiyasi shakllanishi edi. Qadimgi Yunoniston va Rimda barcha ozod kishilar xalq yig'ilishlarida ishtirok etgan va saylovlarda xalq istagi mamlakat qonunchiligining asosi bo'lган.

Yunonistonda ochiq ovoz berish va qur'a tashlash yordamida maxfiy ovoz berish usuli qo'llanilgan. Yig'ilgan ovozlar sonini aniqlash uchun loviya donlaridan foydalanishgan. Bu o'sha davr uchun qulay hamda samarali usul hisoblangan. Rimda esa nomzodlar saylovoldi tadbirlarini tashkil qilib, turli namoyishlar o'tkazilgan. Har ikkala mamlakat mustaqilligining asosi - o'z xohish istaklarini umumxalq kengashlarida bayon etib keladigan xalq hisoblangan. Xalq kengashlarida qonunlar qabul qilingan va bekor qilingan, tinchlik bitimlari tuzilgan hamda urush e'lon qilingan, xalq vakillari, din arboblari saylangan, chiqarilgan sud hukmlari muhokama qilingan, mamlakat hayotiga oid eng muhim qarorlar qabul qilingan.

Bugungi kunda saylovlar demokratik davlatlar taraqqiyotida va fuqarolarning siyosiy huquqlari tizimida muhim konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatida markaziy o'rinni egallab turibdi. Aynan mazkur institut orqali fuqarolar bevosita yoki o'zлari saylagan vakillari (bilvosita), davlat va jamiyatni boshqarish imkoniga egadirlar. Bu bora O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday ta'kidlagan edi: " Demokratiya va saylov tushunchalari doimo yonma-yon yuradi, ular o'zaro birlashib ketgan. Saylov – demokratiya degani. Demokratiya – bu saylov degani "[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev saylov haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: " Saylov siyosiy partiyalar o'rtasida sog'lom raqobat va kurash, prezidentlikka nomzodlarning saylovoldi dasturlarini erkin muhokama qilish sharoitida hamda demokratik prinsiplarga to'liq mos keladigan oshkorlik va ochiqlik ruhida bo'lib o'tadigan siyosiy jarayon"[2].

Saylov o'tkazish tartibi va shu tartiblarni mustahkamlovchi huquqiy normalar yig'insidi - saylov tizimi hisoblanadi. Bugungi kunda demokratik davlatlarning saylov tizimida, ya'ni ovoz berish natijasini aniqlashda keng qo'llaniladigan majoritar, proporsional va aralash saylov tartiblari deyarli barcha mamlakatlar tajribasida keng tarqalgan usullar hisoblanadi.

Majotitar saylov usulida saylovchi aniq bir nomzodga ovoz beradi va saylovchilarning yarmidan ko'pchilik ovozini olgan nomzodlar saylangan deb topiladi.

Proporsional saylov usulida esa ovozlar partiya ro'yxati bo'yicha beriladi, deputatlik o'rni olingan ovozlarga nisbatan taqsimlanadi.

Fuqarolar saylov huquqlarini amalga oshirish jarayonida faqat saylash va saylanish huquqidangina emas, balki boshqa huquqlaridan ham foydalanadi. Masalan, nomzod ko'rsatish, saylov komissiyalari tarkibida ishtirok etish, nomzodlar to'g'risida ma'lumotlar olish, kuzatuvchilar tarkibida ishtirok etish va boshqalar.

Saylovlar ma'lum prinsiplarda o'tkazilib, ular demokratik talablarga va xalqaro hujjat normalariga mos bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida: "Saylov umumiyligi, teng, to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazilishi, har bir saylovchi bitta ovozga ega ekanligi, ovoz berishda fuqaro o'z xohish-irodasini erkin bildirishi"[3], - ko'rsatib o'tilgan.

Oshkoraliq ham saylov huquqining muhim prinsiplaridandir. Saylovlarning barcha jarayonlari oshkora o'tadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Saylov Kodeksining 8-moddasida batafsil yoritilgan: " Saylovga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazilishni saylov komissiyalari ochiq va oshkora amalga oshiradi. OAV saylovga tayyorgarlikning borishini va saylov qanday borayotganligini yoritib boradi"[4].

Fuqarolarning saylovda qatnashishni istisno qiluvchi ikkita asos belgilangan. Birinchidan - fuqaroning muomala layoqati cheklanganligi, aqli zaifligi natijasida. Ikkinchidan - ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan, ya'ni jazo o'tayotganlar. Bularning saylov huquqi jazo o'tash davrida to'xtatiladi.

Har ikkala holatda ham saylovda ishtirok etmaslikning asosi sud hujjatidir. Konstitutsiya boshqa hech qanday holatda fuqarolarning saylov huquqini cheklashga yo'l qo'ymaydi.

Saylovlarda turli senzlar o'rnatilishi (senz - cheklash ma'nosini bildiradi) mumkin. Hozirgi kunda butun dunyoda saylov huquqida mavjud bo'lgan senz - bu yosh senzidir. Yosh senzi fuqaroning voyaga yetgan bo'lishi, uning natijasida esa, o'z harakatlariga javob bera olishini nazarda tutadi.

Aktiv va passiv saylovda yosh senzi har xil o'rnatilgan. Masalan, turli davlatlar misolida ko'radigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida aktiv saylov huquqiga (aktiv- saylash huquqiga) 18 yosh belgilangan, ammo Yaponiyada aktiv saylov huquqi 20 yosh. Sababi har bir davlat o'z Konstitutsiyasi va qonunchiligi doirasidan kelib chiqqan holda, yosh senzini o'rnatadi.

Passiv saylov huquqi (passiv - saylanish huquqi) turli organlarga turlicha o'rnatilgan. Bu jihatdan ham davlatlar tajribasi o'rganildi. Masalan, O'zbekiston Respublikasida Xalq deputatlar Kengashiga 21 yosh, Oliy Majlis deputatligiga 25 yosh, Prezidentlikka nomzodlar 35 yosh etib belgilangan bo'lsa, AQSh saylov tizimida Vakillar palatasiga 25 yosh, Senatga 30 yosh, Prezident hamda vitse-prezidentligiga esa 35 yosh etib belgilanganligining guvohi bo'lamicha.

Xalq hokimiyatchiligining asosi bo'lgan ikkinchi omil bu – referendum hisoblanadi. Referendum – lotincha so'z bo'lib, "xabar berilishi, ma'lum qilinishi zarur bo'lgan narsa", - degan ma'noni anglatadi. Ya'ni davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim masalalar bo'yicha o'tkaziladigan va ba'zan qonunlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan umumxalq so'rovi, ovoz berish yo'li bilan xalq fikrini aniqlash, demakdir.

Referendum saylovlar bilan bir qatorda xalq irodasining bevosita ifodasidir. Referendumda qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega bo'ladi[5].

Saylov prinsiplari bo'lgani kabi referendumo'tkazishning ham asosiy prinsiplari mavjud. Referendum fuqarolarning o'z xohish-irodasini umumiyligi, teng va to'g'ridan to'g'ri bildirishi asosidayashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. Referendumga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jarayoni ochiq va oshkora amalga oshiriladi. Shuningdek, referendumda ham 18 yoshga to'lgan fuqarolar ishtirok etish huquqiga egadir.

Nega aynan saylov hamda referendum jarayonlaridayosh senzi 18 yosh etib belgilanganligining huquqiy asosi quyidagilar:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi talablariga muvofiq[6], 18 yoshga to'lgan fuqaro aynan to'la muomala layoqatiga ega bo'lishi;

Ikkinchidan, BMT tomonidan 1989 yilda qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensianing 1-moddasida[7], aynan 18 yosh insonni voyaga yetgan inson deb belgilanganligi;

Uchinchidan, 18 yosh tibbiy, fiziologik nuqtai-nazardan ham to'la yetuk hisoblanishi bilan izohlanadi.

Saylov hamda referendum jarayonlarining o'ziga xos farqli jihatlari qiyoslanganda quyidagilar aniqlandi:

Saylov tiziminining o'ziga xos xususiyatlari:	Referendum jarayonining o'ziga xos xususiyatlari:
Saylovda ma'lum bir nomzodlarga ovoz beriladi.	Referendumda hal qilinishi kerak bo'lgan masala yoqlab chiqiladi.
Saylov byulletenlari miqdoriy jihatdan tahlil qilinadi.	Referendum byulletenlari esa sifatiy jihatdan tahlil qilinadi.
Saylovda muddat belgilanadi. Saylov jarayoni davlat organlariga saylanadigan shaxslarning vakolat muddatlari tugashi munosabati bilan o'tkaziladi.	Referendumda muddat belgilanmaydi. Referendum jarayoni O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, Oliy Majlis palatalari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan o'tkaziladi.
Saylov jarayonida fuqarolar bevosita va bilvosita ishtirok etish huquqiga ega.	Referendum jarayonida esa faqat bevosita ishtirok etishi kafolatlangan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida saylov tizimi majoritar tartibda amalga oshiriladi. Shuningdek, bu boradagi so'nggi islohotlar natijasi o'laroq katta ehtimol bilan, O'zbekiston Respublikasi saylov tizimida majoritar saylov turi bilan bir qatorda proporsional saylov turini ham joriy qilish ilgari surilmoqda. Ushbu o'rinda davlatimiz rahbari ham siyosiy partiyalar ro'li va mavqeini yanada oshirish maqsadida saylov tizimini qayta ko'rib chiqib, mamlakatda aralash - majoritar va proporsional saylov tizimini joriy etish bo'yicha o'z takliflarini bildirdi. Aralash tizim asosan Qonunchilik palatasiga saylov jarayonida amalga oshirilishi ko'zlangan. Ya'ni, Qonunchilik palatasi deputatlarining yarmi majoritar (hozirgi

tartibda saylansa), qolgan yarmi siyosiy partiyalarning ro'yxatlari asosida saylanadi. Demak, endi fuqarolar 75 ta o'rinn bo'yicha aniq bir nomzodni saylasa, qolgan 75 tasi bo'yicha siyosiy partiyalarga ovoz berish masalalari bo'yicha muhokamalar olib borilmoqda. Keyingi Qonunchilik palatasiga bo'lgan saylovlarda sayloving aralash turi joriy etilishi ham mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, haqiqatan saylov tizimi va referendum jarayonlari – xalq hokimiyatining asosidir. Birinchidan, ikkala siyosiy jarayonning asosiy faol subektlari ya'ni ishtirokchilari bu to'g'ridan to'g'ri xalq(fuqarolar) hisoblanadi.

Ikkinchidan, xalqning saylov va referendum kabi siyosiy jarayonlarda faol ishtiroki, ularning siyosiy ong darajasi rivojlanib borayotganligi va siyosiy huquqlaridan unumli foydalanayotganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, jamiyat va davlat hayotiga oid muhim masalalarda fuqarolar o'zlarining talab va takliflari bilan davlat istiqboli uchun befarq emasligini namoyon etmoqda.

Uchinchidan, xalqimiz uchun saylov va referendum jarayonlari davlat hokimiyati organlarining butun tuzilmasiga bo'lgan oliy boshlang'ich legitimlikni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Xalq ishonchi – yuksak ma'suliyat .//Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T.2. - T.:O'zbekiston, 1996.-349-350-betlar.
2. Manbaa: <https://www.gazeta.uz/oz/2016/12/07/speech/>.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 08.12.1992y. XXIII bob, 117-m.
4. Manbaa: <https://alex.uz/docs/-4386848?ONDATE=09.02.2021>
5. "O'zbekiston Respublikasi Referendumi to'g'risida" gi Qonun(30.08.2001y)
6. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 21.12.1995y. III bob, 22-m.
7. Manbaa: <https://alex.uz/docs/-2595913>
8. Xusanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2013. 294-330-betlar.